



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



### **Qahramanova Durdona Bobur qizi**

*Qahramanova Durdona Bobur qizi 2006-yil 4-oktabr kuni Ishtihon tumani Orlot mahallasida tug'ilgan. Hozirda SHarof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish,o'zbek tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi.*

#### ***Eng shirin tasodif***

Yoshligimning ajib, go'zal chog'ida  
Qalbim eshigini chertgansan sevgim  
Menga eng chiroyli tasodif bo'lib,  
Eng shirin armonim bo'lgansan sevgim.

Agarda dunyoga qayta tug'ilsam  
Muhabbat yo'limda uchrasang yana  
Yana tanlardim men shubhasiz ishon;  
Eng shirin armonim bo'lgansan sevgim.

Hamon uzmaganman umidim sendan.  
Kelmasliging bilib kutaveraman  
Ollohim yozgan shu taqdirginamda,  
Eng shirin armonim bo'lgansan sevgim.

Bir umr tatigulik dardni bersang ham  
Biror marta sendan qolmadi ko'nglim,  
Ollohimning bir kam dunyolarida  
Eng shirin armonim bo'lgansan sevgim.

